

## Faxriylar xonadoniga tashrif

✘ Umrni oqar suvga qiyoslashadi, o'tgan bir lahzani ham ortga qaytarib bo'lmaydi. Lekin qilingan ishlar, ezgu amallar, yillar o'tsada doim tillarga olinaveradi. 9 may –“Xotira va qadrlash kuni” mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Ushbu bayramni institut rahbariyati ham o'z tashabbuslari bilan kafedralarda urish qahramonlari va Front ortida shijoat ko'rsatgan keksalarimizni eslab, xonadonlariga tashriflar uyushtirildi.

Jumladan, 9 may kuni “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti dekani muovini H.Eshova va Geodeziya va geoinformatika kafedrasi madiri I.Musayev, kafedra professor-o'qituvchilari M.Rajabbayev va O'.Muxtorovlar “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasining sobiq professori Sattorxon Ibodullayevning qutlash, holidan habar olish uchun shifoxonaga borishdi. Institut rektori nomidan bayram bilan tabriklashdi hamda institut tomonidan berilgan sovg'alarni yetkazishdi. Bu tashrifdan juda mamnun bo'lgan Sattorxon Ibodullayev bizga va institut rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini aytib xursand bo'ldi.

**YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institutning matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**